



JAHON TILSHUNOSLIGIDA MIFONIMLARNING O'RGANILISHI

Abduolimova Maftunaxon Nurulloxon qizi

Ingliz tili va adabiyoti fakulteti, Amaliy ingliz tili kafedrasи o'qituvchisi

Annotatsiya: Hozirgi kunda yurtimizda ilm-fan va texnikaning rivojlanishi bilan bir qatorda inson nutqiy faoliyati bilan bog'liq masalalarni o'rorganish ham muhim ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etib kelmoqda. Har qanday fan taraqqiyoti muayyan bosqichlardan ya'ni rivojlanish va inqiroz davrlardan iboratdir.

Key words: leksikologiya, so'z ma'nosi, morfologiya, etimologiya, leksik semantika, hisoblash leksikologiyasi, korpus lingvistikasi, tarixiy leksikologiya, tillararo tadqiqotlar, leksikografiya.

Tildagi tushunchalar rivojlanish bosqichida yangilik sifatida namoyon bo'lsa, inqiroz davrida ham keyingi davrlar uchun yangi ilmiy fan paradigmalarining shakllanishida muhim nazariy manba vazifasini o'taydi. Insonlar o'zaro axbarot almashinuv jarayonida tildagi barcha birliklar (tovush, qo'shimcha, so'z, so'z birikmasi va gap) dan foydalanadi. Nutqiy jarayonda ishtirok etayotgan til birliklarini leksik, semantik tabiatini o'rghanish tilning naqadar boy ekanligini va undagi imkoniyatlarni to'liq ochib berishga xizmat qiladi.

Ma'lumki, zamonaviy tilshunoslikda inson faoliyati bilan bog'liq bo'lgan tushunchalarning hammasi antroposentrik harakterga egadir. Ya'ni, har qanday nutq ostida inson omili yotadi. Shuning uchun ham tilshunoslikdagi yetakchi muammolardan biri bu - insonlar nutqida qo'llanilgan matnni har tomonlama mukammal o'rghanishdir. Turli tizimli tillarda qo'llanilgan matnlarni tahlil qilishda tildagi muayyan leksema, frazeologik birlklarning shakllanishi , rivoji va taraqqiy etishini o'rghanish bugun soha vakillari uchun bu borada ulkan tadqiqotlar olib borish vazifasini qo'ymoqda. Garchi, tilshunoslar tomonidan o'z kasblariga oid termin va tushunchalarga atroflicha ta'riflar berilgan bo'lsada, bu sohada mazmun-mohiyati to'laqonli ochib berilmagan yo'nalishlar bor deb hisoblaymiz. Tilshunoslikda bugun ko'p qo'llaniladigan mif, afsona, rivoyat va ertaklarning asosiy leksemasi hisoblangan mifonim tushunchasi shular jumlasidandir. Ma'lumki, insonlar muloqotga kirishar ekan, atrof-muhitda sodir bo'layotgan voqeа- hodisalarga, kishilarga, uni o'rab turgan olamdagи barcha narsalarga o'zlarining ijobjiy, salbiy munosabatlarini namoyon qiladilar. Shunday ekan, bugun tilshunoslikda har bir xalqning milliy merosini jamlovchi xalq og'zaki ijodida uchrovchi mifonimlarni turli tizimli tillar kesimida o'rghanish, tildagi ahamiyatini o'rghanish o'z dolzarbligini saqlab kelmoqda. Tilda olimlar mifonimlar tushunchasini turlichcha tasnif etganlar. Mifonimlar termini ilmiy termin sifatida dastlab Sh.Iskandarovaning "O'zbek tilida shaxs nomlari" nomli doktorlik dissertatsiyasida keltirilgan. Mifonimlar otlar tarkibiga kiruvchi fantastik, ya'ni to'qima obrazlar nomlarini ifodalovchi so'zlar hisoblanadi. keng ma'noda



mifonimlar mif, afsona va ertaklarda qo'llaniladigan obraz yoki joylarning to'qima nomidir. Mifonim so'zi yunon tilidan kirib kelgan bo'lib, mythos- afsona, ertak; onymatism, nom ma'nolarini ifodalaydi, ya`ni, har qanday toifadagi to'qima obrazlar nomi deb tushuniladi. Shu jumladan, mifonimlar tarkibiga olivjanob yoki iblis sifatli personajlar, mavhum tushunchalar, joy nomlari ham kiritiladi . Mifonimlarni tadqiq etishda faqatgina Sharq mamlakatlarida emas, balki G`arb mamlakatlarida sezilarli ishlar amalga oshirilgan.

Mif atamasiga M.I. Steblin-Kamenskiy quyidagichah ta'rif beradi: Mif, bu muayyan voqelik bayoni bo'lib, unda hikoya qilingan voqe-hodisa nechog'lik uydirma bo'lmasin, yaratilgan va yashab kelgan joyida u hamisha haqiqat, real voqelik ifodasi sifatida qabul qilingan. Albatta, mifni o'rganadigan tadqiqotchi undagi uydirmaga ishonmasligi mumkin. Shuning uchun ham mif bugungi kunda haqqoniy hayotiy voqelik ifodasi sifatida anglashilmaydi. Shu tariqa tadqiqotchining mif haqidagi o'z tasavvuri, ya`ni, "mif- uydirmadir" degan qarashi yuzaga keladi. Yaratilgan va ommalashgan joyida mif aslida real voqelik ifodasi deb tushunilgan . Darhaqiqiat, maqol, matal va masallarda keltirilgan mifologik qushlar, hayvonlar ham aslida mavjud bo'lmaydi, aksincha, ular insonlarga xos bo'lgan xususiyatlarni majoziy ma'noda ifodalab beradi. Mifologiya atamasi insonlarning falsafiy qarashlari bilan aloqador bo'lib, ijtimoiy ongning animism, totemizm, fetishism kabi shakllari bilan bog'langanligi aytildi. Qadimgi ibridoiy hayot asosida yaratilgan mifologiya xalqning diniy e'tiqodlarining ilk kurtaklarini, xalq merosining falsafiy, axloqiy va ijtimoiy qarashlarini, olam va odam hayotiga doir ilk sodda ilmiy qarashlarni, real borliqni ongli-hissiy anglagan holda anglashilgan ramziy- metaforik obrazlarni, shuningdek, so'z san`ati, marosimlar bilan bog'liq leksik tushunchalarni va mifologik tafakkurning turli xil shakllarini o'z ichiga oladi. Mifologiya ibridoiy insonning ilmiy, diniy, falsafiy va badiiy qarashlarini o`zida mujassamlashtirgan sinkretik hodisadir . Shuning uchun ham, mifologiya keyingi davrlardagi folklorshunoslik, yozma adabiyot, xalq san`ati va ma'naviy qadriyatlarning shakllanishi uchun asos vazifasini bajargan deyishimiz mumkin. Ertak va rivoyatlarda, she`rlarda keltirilgan mifonimlarni o'rganish, ularni mohiyatini anglash va ularni ilmiy asosda tahlil qilish antik davrlardan boshlangan.

Xususan, Platon asotirlarni falsafiy- ramziy nuqtai nazardan talqin qilgan bo'lsa, yunon faylasufi Evemer (mil. Avv. 3 asrda) mifik obrazlarni o'tmishda yashab o'tgan real tarixiy shaxslarning timsoliy ifodasi deb bilgan. O'n to'qqizinchı asrning 1-yarmida Germaniyada "Mifologik maktab" yuzaga kelgan.

Mifologik maktabning nazariy asoslari nemis filologlari aka-uka Y. va V. Grimm larning "Nemis mifologiyasi" kitobida bayon qilingan. Ular xalq ertaklarini tahlil qilish jarayonida qadimiylar mifologik tasavvurlarning epik syujetlar tarkibidagi qoldiqlarini aniqlab, hind-yevropa xalqlari mifologiyasi yagonq negizga borib taqaladi, degan muhim ilmiy xulosaga kelganlar. Ushbu nazariyani rivojlantirgan A.Kun, V.Shvars, V.Mannhardt (Germaniya), M.Breal (Fransiya), M.Myuller (Angliya), F.I.Buslayev, A.N.Afanasev, O.F.Myuller, A.A.Potebnya (Rossiya) kabi olimlar miflarni



qiyoslab o`rganganlar. Keyinchalik jahon mifshunosligida ko`plab yangi ilmiy yo`nalishlar yuzga keldi. Xususan, ingliz qiyosiy etnografiyasining yutuqlari asosiga qurilgan "antropologik maktab" (E.Teylor, E. Lang, G.Spenser, J.Frezer); mif va marosimlarni o`zaro uzviylikda tadqiq etgan kembrijlik mifshunoslarning "Ritualistik maktabi"- Marosimshunoslik maktabi (D. Garrison, F.M. Kornford, A.B.Kuk, G.Marri); ibtidoiy madaniyatning ruhiy asoslarini o`rgangan fransuz etnologlarining " Ijtimoiy maktab" i (E.Dyurgeym, L.Levi-Bryul); mifologik tafakkurning intellektual hodisasifatidagi o`ziga xosligini yoritib bergen " Simvolistik maktab" – "Ramzshunoslik maktabi" (E.Kassier, V.Vundt, K.G.Yung – Germaniya); "Strukturual maktab" (K. Levi-Stross – Fransiya) vakillarining asarlarida miflar turli nuqtai nazardan tahlil qilingan.

Har bir xalq folklori va adabiyotida mifonimlar va mifologizmlarning o`rni beqiyosdir. Chunki, ertak va rivoyatlarda ishtirok etuvchi mifologik obrazlar qadi zamonlardan mavjud bo`lib, ulardan avloddan avlodda o`tib, xalqning tarixini, urfodatlarini, an`analarini tashishda muhim vosita hisoblanadi. Mifologik obrazlar orqali insonlarga xos bo`lgan xususiyatlar ifodalanib, har bir yaratilagan asar o`quvchiga axloqiy bir dars berishga mo`ljallangandir. Bundan tashqari, bu obrazlar o`zining serqirraliligi, g`ayrioddiy qobiliyatlarga ega ekanligi bilan tilning, adabiyotning ko`zgusi sifatida namoyon bo`ladi.

REFERENCES:

1. Абдураҳмонов Х., Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент, Ўқитувчи, 1981.
2. Аметова О. Шевалар-қадимий сўзлар хазинаси сифатида. // ЎТВА. 2009 йил 2-сон.
3. Дониёров Х., Йўлдошев Б. Адабий тил ва бадиий стиль. –Тошкент, Фан, 1988.
4. Yo`ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. Toshkent, 2008.
5. Искандарова Ш. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш. –НДА. Тошкент, 1999.
6. Каримов С. Бадиий матннинг услубий воситалари. – Самарқанд, 1990.
7. Abduolimova, M. (2024). Bugungi Kun Yoshlarining Kitobxonlikka Munosabati. Journal of Innovation in Education and Social Research, 2(2), 31-33.
8. Abduolimova, M. (2022). METAFORANING TILSHUNOSLIKDA NAMOYON BO'LISHI VA UNING ILMIY AHAMIYATI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(2), 650-657.
9. Melikuziev, A. (2023). NON-LINGUSITIC SEMIOTIC SYSTEM AND ITS ELEMENTS. Farg'onadavlat universiteti, (5), 56-56.